

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati..... | 8 |
| T.A.Egamberdiyeva Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari | 13 |
| N.T.To‘xtaboyev Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi tahlili | 18 |
| I.B.Siddiqov Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida..... | 25 |
| N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi | 28 |
| Sh.A.Mamajonov Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish..... | 32 |
| M.M.Kuzibayeva Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar..... | 37 |
| K.R.Abdullayev Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari..... | 39 |
| Sh.K.Xujamberdiyeva Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari | 43 |
| U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari | 48 |
| R.Z.Xayrov Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari..... | 54 |
| G.U.Radjabova Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi..... | 61 |
| Г.К.Якубова Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" | 67 |
| M.M.Xamroliev Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari | 73 |
| U.V.Mamadjanov Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari | 76 |
| S.X.Kaxxarov Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari | 80 |
| X.X.Tojiyev Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash | 85 |
| D.S.Sobirov Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari | 92 |
| D.Z.Isaboyeva Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) | 96 |
| F.Q.Yusupjanova O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari | 99 |
| X.A.Ustadjalilova Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari..... | 102 |

**TALABALARNING MA'NAVİY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI JADID PEDAGOGIKASI
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI****ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ ДЖАДИДСКОЙ ПЕДАГОГИКИ****OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND MORAL
COMPETENCE OF STUDENTS BY MEANS OF JADID PEDAGOGY****Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrası v.b. dotsenti, p.f.b.f.d(PhD)**Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li²**²Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning mazmuni, metodlari va shakllarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar, yo'nalishlari belgilab berilgan.

Аннотация

В данной статье определены рекомендации и направления по разработке содержания, методов и форм развития духовно-нравственной компетентности учащихся средствами джадидской педагогики.

Abstract

In this article, the recommendations and directions for the development of the content, methods and forms of the development of spiritual and moral competence of students by means of jadid pedagogy are defined.

Kalit so'zlar: talabalar, ma'naviy-axloq, kompetentlik, metod, shakl, vosita, jadid pedagogikasi,

Ключевые слова: студенты, духовно-нравственные, компетентность, метод, форма, инструмент, джадидская педагогика.

Key words: students, spiritual-morality, competence, method, form, tool, jadid pedagogy,

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda globalashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat barcha sohalarda amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, ularning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deb ta'kidlaydi. Bejiz, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" kabilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilab o'tilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri ekanligini alohida e'tirof etish mumkin.

Dunyoda bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda ijtimoiylashuvni ta'minlash, pedagogika fanining eng samarali usullari interpretatsiyasidan keng foydalanish, ma'naviy-axloqiy kompetentlikning xususiyatlariga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim va o'qitish jarayonida ma'nan-axloqan yetuk sog'lom kadrlarning sifat ko'rsatkichlarini belgilash uchun talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentlik darajasini aniqlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Bahovuddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy asarlarini misol keltirishimiz mumkin. Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik g'oyalari, avvalo, inson aqli to'g'risidagi ta'limoti bilan bog'liq. U o'z aqlini har

tomonlama rivojlantirishni va haqiqatni bilishga qodir inson qobiliyatiga ishondi. Ibn Sino faqat hakim emas, balki buyuk muallim sifatida ham bolaning tabiatini chuqur tushuntirdi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, ta'lim ilmiy asosga qurilishi kerak. U "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida aniq bo'lmagan faktlarni aniqlamasdan xabar qilishdan, shubhasiz, to'g'ri bo'lgan shubhalarni ma'lumga noma'lumni aralashtirmasdan saqlanish kerakligini aytadi. Beruniy: "Tarbiyada asosiy e'tiborni mehnatsevarlikni tarbiyalash, oliyanoblik fazilatlarini va o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirishga qaratish kerak",-deb hisoblaydi. Zero, o'qituvchi, tarbiyachining o'zi ham bunga munosib bo'lishi kerak. Beruniy o'z asarlarida ishontirish, rag'batlantirish yo'li bilan tarbiyaning yo'nalishini belgilab berganligini adabiyotlar tahlilida ko'rishimiz mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi o'zgarishlar ma'rifatparvarlik g'oyasini ham muayyan o'zgarishlarga tortdi. Turkistonga olib kelingan yangi – ovro'pacha madaniyat o'nlab ziyolilarni ilmiy, ma'naviy mo'jizalardan hayratga tushirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarida esa komil farzandlar tarbiyasi, dastlab, usuli jadid deb atalmish yangi maktablar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. "Boshqa millatning yosh bolalari maktabda ekan, bizniki hammolikda va gadoylikda boshqa millat ulamosig'a tobe ekan, bizni ulamo bil'aksavomg'a tobedur. Muning oxiri xarobdur. Bukun islohi maktab, madrasa, ya'ni millatga kushoyish qilinmasa, rabi asr so'ng diyonat barbod bo'lur va oning javobi, ma'suliyati bugung'ilarga qolur. Bu ma'suliyatdan qutulmoq uchun millatni diniy va dunyoviy ilm va fanlar o'qumoq uchun targ'ib qilmoq kerak".

M.Behbudiyning ma'rifiy qarashlariga ta'sir etgan omillar qanday edi? Uning fikrlari qaysi manbalardan oziqlandi, taraqqiy topdi?- degan savol ustida bosh qotirar ekanmiz, buni avvalo, o'sha davrdagi tarixiy vaziyat va ushbu davrda Rusiya musulmonlari hayotiga chuqur o'zgarishlar kiritgan, ilg'or Yevropa madaniyati yutuqlaridan ta'sirlangan, o'tashin turk vatanparvarlari g'oyalaridan ilhomlangan qrim-tatar ziyolisi Ismoilbey G'aspirali faoliyati bilan baholashga haqlimiz.

"Jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Kavkazda paydo bo'ldi. Uning asoschisi haqli suratda boqchasaroylik mashhur Ismoilbek Gaspirinskiydir. U 1884- yilda bir maktab ochdi. Qirq kunda 12 o'quvchining savodini chiqaradi. Shundan so'ng bu usul "usuli savtiya" (harf , tovush), maktab "usuli jadid" (yangi usul, yangi maktab) nomi bilan shuhrat qozondi",-deydi professor Begali Qosimov.

Shuningdek, jadidchilik harakatining maqsad va g'oyalarini chuqur hamda ta'sirchan targ'ib etishda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon singari adabiy siymolarning faoliyati nihoyatda yuqori bo'lib, ular jadid adabiyotining yorqin siymolari, ma'rifatparvar shaxslar sifatida tarix sahifalaridan muqim o'rin egallashgan. Jumladan, jadid pedagoglaridan Abdulla Avloniy ijodida yoshlarning bilim olishi, ilm egallashi, o'z-o'zini rivojlantirishi bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Abdulla Avloniy qarashlariga ko'ra, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya–ijtimoiy jarayon. Har bir insonning tarbiyasiga butun jamiyat mas'ul bo'lishi lozim. Xalqlar, millatlarning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga chambarchas bog'liq bo'ladi.

Abdulla Avloniyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarida yaxshilik muhim o'rin tutadi. Adib yaxshilikni eng ulug' fazilat hisoblaydi, insonlarni bir-birlariga yaxshilik qilishga da'vat etadi. Bu borada o'zi ham ibrat bo'ladi. Xususan, alloma aholining bilim-ma'rifatini oshirish maqsadida o'z boyligini yangi maktablar, teatr truppalari ochishga beminnat sarflaydi, gazetalar chop ettiradi. O'z xulosalarini shunday ifodalaydi:

Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon,

Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.

Yaxshi so'z birlan ilon indan chiqar,

So'z yomon bo'lsa, pichoq qindan chiqar.

Abdulla Avloniy ma'naviy-axloqiy ta'limotida saxiylik, rahm-shafqat, xushfe'llik,

xushmuomalalikni targ'ib etish ham yuqori o'rin tutadi. Adib bularni eng yaxshi insoniy fazilatlar hisoblaydi.

Turkiston ma'rifatparvarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir (1870). Uning axloqiy qarashlari lirik-falsafiy she'rlarida va "Qarolar falsafasi" (1898) risolasida o'z aksini topgan. Anbar otin ham inson axloqiy darajasini aql, ilm - ma'rifat bilan bog'laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan

aqidaga amal qiladi. Uning asarlarida axloqsizlik botqog'iga botib borayotgan jamiyatga nafratni, shariat va tariqat namoyandalari aynib ketganligi, boylardan insof ko'tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. "Muqimiyga", "Mingboshi kal Omil hajvi, "Olimjon hoji ta'rifi" kabi she'rlarida ana shu yo'nalishni ko'rish mumkin. Tanqidiy-badiiy shakldagi bu yo'nalish "Qarolar falsafasi" risolasida falsafiy-tahliliy shakl kasb etadi.

Turkiston ma'rifatchilari axloqshunosligida tom ma'nodagi milliy qahramonimiz Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" (1914) kitobi a'lohida o'rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, "Oila" o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli. Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi. Buning uchun har bir turkistonlik oila bilim, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi. "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor..." – deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, muallif kitobning birinchi qismini, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigiyenik-salamatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan holatlarning axloqiy asoslari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi.

Kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson kamol topadi deb hisoblaydi muallif. Kitobning bu qismida Fitrat, ma'lum ma'noda, o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o'rtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli va h.k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a'zosi sifatida, ham ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. «Iroda va ixtiyor» sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi, iroda tarbiyasining to'rt bandedan iborat qoida-bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta'kidlaydi. «Ota-onalarning haq-huquqlari» bobida ham balog'atga yetgan farzandning erkinlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Bizningcha ma'naviy-axloqiy bilimlarning ma'naviy-axloqiy kompetentsiya tuzilmasi sifatida shakllanishi natijasida o'quvchilarda vatanparvarlik, baxt-saodat, shon-shuhrat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, vijdon, burch, adolat, or-nomus, e'tiqod, sadoqat kabi fazilatlar shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallagan o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllana boshlaydi. Bunday fazilatlar ega bo'lgan yoshlar odob-axloq me'yorlari talablarini ongli ravishda bajaradi, ma'naviy meros, urf-odat va an'analar kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetentsiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlar va milliy tarbiya asoslaridan foydalanish yo'llari, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish va bo'lajak mutaxassislarni ma'nan-axloqan tarbiyalashda jadid ma'rifatparvarlarining adabiy me'roslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Kadrlar tayyorlash muammosi, ayniqsa, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ish tizimini samarali tashkil etish masalalari yuzasidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilinib, amalga oshirildi. Talabalar va yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish shakllari va usullari (konferensiya darslari; dars; amaliy dars; o'yin darsi; sayohat darslari; ro'lli o'yinlar darslari; o'quv faoliyati; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash; ma'naviy madaniyatni shakllantirish usullari : muammoli vaziyat; qiyosiy-tushuntirish tahlili; asarlar ustidagi badiiy-ma'rifiy ishlar; ijodiy ish; kontseptual tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni izohlash va o'rganish; mustaqil ish va boshqalar) muhim o'rin tutadi. Tahlillar va zamonaviy pedagogika asosida o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va tashabbusi asosida ma'naviy-axloqiy kompetentsiyasini rivojlantirish ma'naviy-axloqiy bilim, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy faollik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

PEDAGOGIKA

Ma'naviy-axloqiy bilimlarni ma'naviy-axloqiy kompetensiyaning bir qismi sifatida shakllantirish natijasida o'quvchilarda vatanparvarlik, baxt-saodat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, vijdon, burch, adolat, or-nomus, kabi bir qator axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallagan o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllana boshlaydi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan yoshlar ma'naviy-axloqiy me'yorlar talablarini ongli ravishda bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ya'ni ma'naviy meros, urf-odat va an'analarni hurmat qiladi. Biroq, ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish, ularni tushunish va yaxshi fazilatlarni rivojlantirish yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi degani emas. Insoniylik fazilatlari hayotiy tajribalarda namoyon bo'lsa va munosabatlarga kirishayotgan shaxsning faoliyatida aniq namoyon bo'lsa bu uning tarbiya darajasini belgilaydi. Jamiyat taraqqiyoti uchun, eng avvalo, ma'naviy-axloqiy barkamol, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash bilan birga, yoshlarning bilim saviyasini yuksaltirishga e'tibor qaratish zarur. Zero, jamiyat taraqqiyotini ma'nan-axloqan bilimli shaxslarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunda, eng avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini to'g'ri tizimli yo'lga qo'ya bilish, ish mazmunini belgilab olish, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur.

-ta'lim muassasalarida izchillik asosida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan kasbiy malakali mutaxassislarni tayyorlash.


- uzluksiz ta'limning har bir bosqichida ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlash;

- ta'lim jarayonida turli tarbiya vositalari orqali yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jadid adabiyotidan keng foydalanishni tahlil qilish;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyada zamonaviy axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik uslublar bilan uyg'unlikda shaxsga yo'naltirilgan usul va vositalarni tashkil etishni yo'lga qo'yish;

- yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya darajasini aniqlash maqsadida so'rovnomalarni o'tkazish va natijalarini qayd etish;

- ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni barkamol ijtimoiy faol mutaxassislar etib tayyorlashga erishish.



Jadid pedagogikasi vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modeli

Yoshlarda ijtimoiy-pedagogik faollikni, tashabbuskorlikni tashkil etishda ta'lim muassasalarida fanlarini o'qitish jarayonida individual yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va hamkorlikda ta'limni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchida ma'naviy-axloqiy kompetentsiyani rivojlantirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogika orqali talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etish, uning mazmuni, shakli, usul va vositalarini izchil takomillashtirib borish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy toifalar, me'yorlar, qadriyatlar tizimi haqidagi bilimlarni shakllantirishni taqazo etadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar, ulardan amaliy

faoliyatda foydalanish malakalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligini rivojlantirishda millatimiz tarixi va ma'naviyatining ildizlariga e'tibor qaratish, ma'naviyatini yuksaltirish orqali ajdodlarimiz adabiy merosini keng targ'ib qilish, ulardan unumli foydalanish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning hammasi talabalarni ma'naviy-axloqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish va demokratik jamiyatda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning muhim asoslari sifatida yuqori natijaga erishishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>.
6. Ilm olish sirlari. Imom Zarnujiy Movaraunnahr Toshkent-2004[4]6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta'lim, fan va innovatsiya. 2019, – №1. – B. 77-81.
7. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.67 b.
8. Kurbanovich, M. U. (2020). Pedagogical tendencies of the development of social activity skills of primary school pupils through the use of folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 562-566.
9. Qurbonovich, M. U. B., & Akramjon o'g, A. R. Z. (2023, June). JADID PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALARNING MA'NAVYIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 6, pp. 129-135).
10. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 407-412.
11. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 394-396).
12. Maksudov, U. K. (2022). Development of Social Activity of Primary School Students through Folk Oral Creativity. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(5), 54-57.
13. Maksudov, U. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 688-693.